

## COGNITIVE SEMANTIC ANALYSIS OF SPATIAL DEIXIS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

**Rajabboqiyeva Barno Obidjon qizi**

Master student at Turon University

email: [rajabboqiyevab@gmail.com](mailto:rajabboqiyevab@gmail.com)

Scientific supervisor: doc.M.Khamrayeva

**Abstract** This article examines the cognitive-semantic features of spatial deixis in English and Uzbek. The study highlights the role of spatial markers in expressing the speaker's position in space, their dependence on context, and their significance in the formation of mental maps. It analyzes the semantic shifts and metaphorical extensions of units such as here, there, this, that in English and bu yerda, u yerda, bu, u in Uzbek within a cognitive framework. Furthermore, the paper identifies similarities and differences in the conceptual structure and pragmatic use of spatial deixis in both languages. The findings are relevant for linguistics, translation studies, and intercultural communication.

**Keywords:** *spatial deixis, deictic expressions, functional-semantic analysis, spatial reference, context.*

### INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON DEYKSISING KOGNITIV SEMANTIK TAHLILI

**Anotatsiya** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi makon deyksisining kognitiv-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda makon ko'rsatkichlari nutq jarayonida subyektning fazodagi pozitsiyasini ifodalashdagi roli, til birliklarining kontekstga bog'liqligi va mental xarita shakllanishidagi ahamiyati yoritilgan. Ingliz tilida here, there, this, that kabi birliklarning, o'zbek tilida esa bu yerda, u yerda, bu, u kabi ko'rsatkichlarning ma'no o'zgarishlari va metaforik kengayishlari kognitiv yondashuv asosida tahlil qilingan. Shuningdek, ikki til o'rtasida makon deyksisining konseptual tuzilishi va nutqiy qo'llanishidagi o'xshash hamda farqli jihatlar aniqlanadi. Maqola natijalari tilshunoslik, tarjima nazariyasi va madaniyatlararo muloqot sohalarida qo'llash uchun ahamiyatlidir.

**Kalit so'zlar:** *makon deyksisi, deyktik birliklar, fazoviy ko'rsatkichlar, funksional-semantik xususiyat, kontekst.*

**Аннотация** В данной статье рассматриваются когнитивно-семантические особенности пространственного дейксиса в английском и узбекском языках. В исследовании подчеркивается роль пространственных показателей в выражении позиции говорящего в пространстве, их зависимость от контекста и значение в формировании ментальной карты. Проанализированы семантические сдвиги и метафорические расширения таких единиц, как here, there, this, that в английском языке и bu yerda, u yerda, bu, u в узбекском языке в рамках когнитивного подхода. Кроме того, выявлены сходства и различия в концептуальной структуре и прагматическом употреблении пространственного дейксиса в обоих языках. Результаты исследования представляют интерес для лингвистики, теории перевода и межкультурной коммуникации..

**Ключевые слова:** *пространственный дейксис, дейктические выражения, функционально-семантический анализ, контекст.*

**Kirish.** Ma'lumki deyksis so'zi yunon tilidan olingan bo'lib ko'rsatkich deya tarjima qilingan. Bugunga qadar deyksisini dunyoning ko'plab olimlari o'rgangan.

**Muhokama** F. Lenz o'zining "Deictic conceptualisation of Space, Time and Person" nomli maqolasida deyksis atamasiga quyidagicha izoh bergan: «Deyksis – universal hodisa bo'lib, har bir til ko'plab deyktik iboralarga ega ularning aksariyati tez-tez og'zaki nutqda qo'llaniladi hamda yuqori darajada grammatikalashtirilgan» Deyksis nazariyasining markaziy tushunchalaridan biri sifatida deyktik deyktik birliklari sanaladi. Nutq(matn) tarkibida "ishora qilish" vazifasini bajaruvchi birliklar obyektini bevosita izohlaydigan nominativ birliklardan farqli o'laroq nutqiy holatga yoki so'zlovchi tomonidan belgilangan muayyan mo'ljal markaziga nisbatan obyektini tavsiflaydi [Lens 2003; 7].

Tilshunoslikda deyksis tushunchasining besh xil turi mavjud bo'lib unga quyidagilar kiradi. 1) vaqt deyksisi; 2) shaxs deyksisi; 3) o'rin joy deyksisi; 4) ijtimoiy deyksis; 5) diskursiv deyksis. Maqolamizda o'rin joy deyksisini ko'rib chiqamiz va tahlil qilamiz. Makon deyksisi so'z va iboralarning muloqot paytida so'zlovchining joylashgan joyini va yo'nalishini ko'rsatish uchun qo'llanadi. [en.wikipedia.org].

Makon deyksisidan foydalangan holda joylarga ishora qilish usuli, asosida so'zlovchi va tinglovchi bilan bog'liq bo'lgan narsa qayerdaligi anglanadi. Deyksisning makon turi kosmosda nutq ishtirokchilarini ham, hikoya qiluvchi ishtirokchilarni ham lokatsiyasini ko'rsatishi mumkin. Bunda eng ko'p uchraydigan so'zlar o'zbek tilida *bu, o'sha, ana shu, mana shu* olmoshlaridir. Ingliz tilida esa *this, that, those, there, here, on, in*, birliklari bilan ifodalandi [Levinson 1983; 33].

O'rin joy deyksisi esa makon deyksisi ham makonni ko'rsatadi va u so'zlovchi tinglovchi joylashgan joyini ko'rsatish uchun xizmat qiladi [Giergjin 2015;137].

Deyksis tilshunoslikda pragmatika va semantikada o'rganilgan muhim atamadir. Deyksis dialogda juda muhim sohadir, chunki u ishtirokchilarning o'rnini hamda vaqtini, ko'rsatadi [ Cairns 1991;18].

Makon deyksisi so'zlovchi va tinglovchi joylashgan lokatsiyasini ko'rsatadi [Vaysi & Salehnejad; 2016].

Makon muloqot ishtirokchilarining muloqot kechayotgan paytdagi o'rniga nisbatan belgilanishi deyktik xarakterga ega [Safarov 2008; 13].

Rus olimi Yu.Apresyan mazkur holatdagi deyksisni (dialog, jonli muloqot vaziyatidagi) birlamchi deyksis sifatida, nutqiy muloqotda yuzma-yuz turmagan so'zlovchi va tinglovchining muayyan o'rin-joyga ishorasi hamda nutqiy akt jarayonini bayon, hikoya qilib berishda yuzaga chiqqan deyksisni ikkilamchi deyksis sifatida tasniflaydi. [Apresyan, Yuri D.1986;19]

**Tahlillar va natijalar.** Quyidagi misolda makon deyksisini badiiy matnda uchrashini ko'rib chiqamiz va funksional-semantik tafovutlarini tahlil qilib ko'ramiz:

*Qishloq guzarida yarmini yashin uchirib ketgan bahaybat chinor bor ekan. Bola daraxtni ko'rib angrayib qoldi: chinorning tarvaqaylab o'sgan shoxida supradek kattakon uya qorayib ko'rinar, uyada esa oyog'i, tumshug'i uzun bir qush turar edi (O'tkir Hoshimov, Daftar Hoshiyasidagi Bitiklar ;132)*

Makon deysisiga oid birliklarni ko'rib chiqamiz. "*Qishloq guzarida*" — aniqlashtirilgan makon, bu yerda voqea sodir bo'lmoqda. Bu makon matn kontekstida asosiy hodisa joyi sifatida belgilangan.

"*Daraxtni ko'rib*" — daraxtning joylashuvi bola turib turgan makondan ko'rinadigan yaqinlikda. "*Chinorning ... shoxida*" — vertikal fazodagi nisbiy makon (yuqoriga nisbatan). "*Uyada*" — uya joylashuvi avvalgi makon (shox)ga nisbatan ichki fazoviy bog'lanishda. "*Qorayib ko'rinar*", "*turar edi*" — bu holat kuzatuvchining (bola) joyiga nisbatan fazoviy masofa bilan ifodalanmoqda. "*Qishloq guzarida*", "*shoxida*", "*uyada*" kabi birliklar joyni belgilash orqali predmetlarning fazodagi o'rnini ko'rsatadi. Uya va qush esa balandda va biroz uzoqroq (distansial), ya'ni "*shoxida*", "*uyada*" — bu nisbiy uzoqlikni bildiradi.

*There are forests of feelings inside you. May you need someone who knows how to water your soul. Someone who not only notices your absence but also hates it (Rithvik Singh I don't love you anymore; 2024. 15)*

Matndagi makon deysisi birliklarini ko'rib, tahlil qilamiz.

*inside you* – to'g'ridan-to'g'ri fazoviy ifoda, lekin metaforik ishlatilgan. Bu "*sening ichingda*" degani, lekin jismoniy joy emas, balki hissiyotlar dunyosi (psixologik makon).

*your absence* – yo'qlik ham bir turdagi mavjud bo'lmagan makon sifatida qabul qilinadi. Gapning semantik maydonida bu "*sening bo'shlig'ing*" yoki "*sen bo'lmagan joy*" sifatida makon anglatadi.

Endi ingliz va o'zbek tillarida funksional semantik tafovutlarini ko'rib chiqamiz

Ingliz tili va O'zbek tilida Funksional izohlarni ko'rib chiqamiz.

*inside you* – ko'proq jismoniy makondan metaforik ichki dunyoga ko'chirilgan *ichingda* – o'zbekchada ham ishlatiladi, lekin ko'pincha hissiyotlarni tasvirlashda *ich-ichingda* yoki qalbingda kabi kuchaytiruvchi so'zlar qo'shiladi. Ingliz tilida "*inside*" umumiy, neytral bo'lsa, o'zbek tilida ko'proq hissiy, lirik tusidagi variantlar tanlanadi.

*your absence* – shaxs yo'qligini fazoviy bo'shliq sifatida ifodalaydi yo'qliging yoki *sening yo'qliging* – o'zbek tilida ham ishlatiladi ammo ko'pincha bu "*sen bo'lmaganingda*" kabi vaqt-makon aralash deysis bilan ifodalanadi. Inglizcha "*absence*" bir so'z bilan ham vaqt, ham makonni bildirishi mumkin, o'zbekchada esa ko'pincha qo'shimcha izoh kerak.

Metaforik makon funksiyasini ham ko'rib chiqamiz. Bu matnda makon deysisi faqat fizik joyni ko'rsatish uchun emas, balki ichki ruhiy dunyoni tasvirlash uchun ishlatilgan.

*forests of feelings inside you* – ichki dunyo “o‘rmon” sifatida tasavvur qilingan, bu hissiyotlar murakkabligi va ko‘pligini ifodalaydi.

*absence* – insonning yo‘qligi bo‘sh joy sifatida ko‘riladi, bu bo‘shliqning hissiy og‘irligi kuchli urg‘u bilan berilgan.

Matndagi makon deysisi birliklari metaforik ishlatilgan bo‘lib, ular jismoniy fazodan ko‘ra ruhiy makon tasviriga xizmat qilgan. Ingliz va o‘zbek tillaridagi funksional-semantik tafovut shundaki, ingliz tili qisqa, neytral birliklar bilan (*inside*, *absence*) bu ma‘noni bera oladi, o‘zbek tilida esa ko‘proq hissiy kuchaytirgich va aniqlashtiruvchi so‘zlar (qalbingda, ich-ichingda, sen bo‘lmaganda) qo‘llanadi. Matndagi makon deysisi birliklari metaforik ishlatilgan bo‘lib, ular jismoniy fazodan ko‘ra ruhiy makon tasviriga xizmat qilgan. Ingliz va o‘zbek tillaridagi funksional-semantik tafovut shundaki, ingliz tili qisqa, neytral birliklar bilan (*inside*, *absence*) bu ma‘noni bera oladi, o‘zbek tilida esa ko‘proq hissiy kuchaytirgich va aniqlashtiruvchi so‘zlar (qalbingda, ich-ichingda, sen bo‘lmaganda) qo‘llanadi.

*Qorong‘i osmonda yana ham qoraroq soyadek qilt etmay turgan bu qoyalar bizga o‘xshaganlarning necha-nechasini ko‘rdi ekan?.. Faqat ularning tili yo‘q... (O‘tkir Hoshimov Tushda Kechgan Umrlar; 2015.18)*

*qorong‘i osmon*” makon deysisi (vizual fondagi fon element) voqeaning umumiy joylashuvi — yuqoridagi osmonni tasvirlaydi, keng va cheksiz makon tasavvuri, dramatik fon. “*Yana ham qoraroq soyadek*” Makoniy tasviriy o‘xshatish Qoya va uning atrofidagi bo‘shliqni kuchli kontrastda ko‘rsatadi. Qattiq va harakatsiz obyektning yanada sokin, sirli tus olishi. “*qilt etmay turgan bu qoyalar*” Ko‘rsatish olmoshi + predmet. “*Bu*” olmoshi orqali yaqin (nutq nuqtasiga yaqin) obyektga ishora. O‘quvchini voqea makoniga bevosita jalb qilish, hozirlik hissini anglatiyapti. “*bizga o‘xshaganlarning*” makon bilan bilvosita bog‘langan shaxs deysisi. Shaxslar guruhini shu joy bilan tarixiy bog‘laydi. O‘tmishdagi odamlarning shu makonda mavjud bo‘lgani tasavvuri

Deiktik markaz — nutq subyekti va uning kuzatish nuqtasi. “*Bu qoyalar*” deganda deiktik markaz shu qoyalar joylashgan manzil bo‘lib qoladi. Vizual deiksisi — makon vositalari (osmon, qoya) tasvir o‘quvchiga ko‘rinish tasavvurini beradi.

Semantik tafovutlarini ko‘rib chiqamiz. Bu parchada makon deysisi ikki qatlamda ishlatilgan: Jismoniy-moddiy makon — qoya, osmon, soyalar (real va bevosita ko‘rinadigan obyektlar). Ruhiy-ma‘naviy makon — o‘tmish va hozirgi zamon orasidagi “*guvohlik makoni*” (qoya abadiyat, odamlar esa o‘tkinchi). Farqi shundaki, jismoniy makon — predmetni aniq joylashtiradi, ruhiy makon esa vaqtning cho‘zilishida mavjud bo‘lgan o‘zgarishsiz fonni ifodalaydi. O‘tkir Hoshimov bu jumlada makon deysisini faqat “joyini belgilash” uchun emas, balki abadiylik va o‘tkinchilik o‘rtasidagi dramatik kontrastni berish uchun ishlatgan. “*Bu qoyalar*” degan ishora o‘quvchini o‘sha joyga bevosita olib kiradi, “*qorong‘i osmon*” esa sahnaga hissiy fon yaratadi. Natijada makon deysisi matnning falsafiy mazmunini kuchaytiruvchi vositaga aylanadi.

*It was just after 1:00 pm and Sara was getting hungry. She had put in a few productive hours of work at her desk and decided to get a bite to eat at a nearby coffee shop. (Jeff Keller Attitude Everything; 2001 )*

Ushbu jumlada makon deyxisini bildiruvchi asosiy birlik: "*nearby coffee shop*" bu ifoda makon nuqtasini Sara yoki hikoya ichidagi kuzatuv nuqtasiga nisbatan ko'rsatadi. "*Nearby*" so'zi voqea sodir bo'layotgan joydan (Sara ishlayotgan joydan) masofaning yaqinligini bildiradi. Bu nisbiy (relative) makon ko'rsatkichi bo'lib, aniq geografik manzil berilmaydi, faqat makondagi yaqinlik tushunchasi ifodalanadi. Makon nuqtai nazari (deictic center) Deiktik markaz bu Sara joylashgan ish stoli ("*at her desk*") va u o'ylayotgan harakat (yaqin joydagi qahvaxona) atrofida tashkil topgan. "*At her desk*" bu ham makon deyxisi, chunki Sara aynan shu joyda ish qilmoqda. "*Nearby coffee shop*" makon markaziga nisbatan tashqi yo'nalishni ko'rsatadi. Funktsional-semantik jihatini ham ko'rib chiqamiz. Subyektiv markazlashuv: joylar Sara nuqtai nazaridan aniqlanadi (hikoyachi yoki boshqa personaj nuqtasidan emas. Bu parcha ikki xil makon deyxisini o'z ichiga oladi: Ichki makon Sara joylashgan ish stoli ("*at her desk*").

Tashqi makon — yaqin atrofdagi qahvaxona ("*nearby coffee shop*"), bu joy Sara ish joyiga nisbatan belgilanadi.

**Xulosa.** Ingliz va o'zbek tillarida makon deyxisi funktsional-semantik jihatdan umumiyliklarga ega bo'lsa-da, ularning ifodalanish vositalari va qo'llanish xususiyatlarida ayrim farqlar mavjud. Har ikki tilda makon deyxisi nutq vaziyatiga nisbatan shaxslar, narsalar va hodisalarning joylashuvi hamda masofasini ko'rsatishga xizmat qiladi. Ingliz tilida makon ko'rsatkichi asosan *this/that, here/there, nearby/far away, above/below* kabi aniq leksik birliklar va predloglar yordamida ifodalanadi. O'zbek tilida esa *bu/u, shu/o'sha, bu yerda/u yerda, yaqin/uzoq* kabi olmoshlar, qo'shimchalar (*-da, -ga, -dan*) va *ba'zan* fe'l shakllari orqali makon munosabatlari yetkaziladi.

Semantik jihatdan ingliz tilida makon deyxisi ko'pincha ikki darajali (proksimal-distal) qarama-qarshilikni ifodalasa, o'zbek tilida uch darajali tizim (nutq markaziga yaqin, o'rta masofadagi, uzoq) kuzatiladi. Bundan tashqari, ingliz tilida makon ko'rsatkichlari ko'pincha qat'iy grammatik me'yor asosida ishlatilsa, o'zbek tilida u kontekst va nutq ohangiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, makon deyxisi ikki tilda ham nutqiy vaziyatni aniqlash, fazoviy tasavvurni shakllantirish va kommunikativ aniqlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, farqlar asosan grammatik vositalar, daraja tizimi va kontekstual qo'llanish xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Apresyan, Yuri D. *Deixis in vocabulary and grammar and naive model of world*. Moskva 1986 P 19
2. Helen .S. Cairns .*The Notion of Innateness in Language Acquisition: Some Empirical Consequences*
3. [www.en.wikipedia.org](http://www.en.wikipedia.org)
4. Lenz F. *Deictic Conceptualisation of Space, Time and Person // Deictic Conceptualisation of Space, Time and Person*. – Amsterdam / Philadelphia.: John Benjamins Publishing Company, 2003. – P 7
5. Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. – Toshkent. 2008 P 33
6. Vaysi, E., & Salehnejad, L. (2016). *Deixis in Eng and Persian*, 3(1), 1405–1414.